

## BOSHLANG'ICH SINF DARSLIKALARIDA 4K MODELIDAN SAMARALI FOYDALANISH

Valiyeva Bahora Tohpulatovna

43-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Yangi o'quv yilidan boshlab boshlang'ich sinf o'quvchilar yangi avlod darsliklari asosida ta'lim olisni boshladilar. Darsliklarimizning asosiy e'tiborli jihat, mohiyatlaridan biri bu ularning 4K tamoyili asosida chop etilganidir. Biz bu tamoyilda quruq ma'lumotlarni yodlatish yoki shunchaki o'qish, yozishni o'rgatish bilan cheklanib qolmaymiz. O'quvchilar faqat fanlarnigina emas, balki XXI asrda zarur bo'lgan fanlar bilan birga hayotiy ko'nikmalarni ham o'rganadilar.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim, tarbiya darslik, o'quvchi, jarayon.

Boshlang'ich ta'lim – bolalarni shakllanishi davrining eng muhim ta'lim jarayoni bo'lib bu davr bola ong ostida bir butun dunyoni anglashi, tasavvur va bilimlar poydevorini tiklab olishi uchun ham juda nozik e'tibor talab etadi. Biz ustoz muallimlar bu davrda o'ta ziyraklik bilan bu yosh avlodni buyuk ajdodlarimizga munosib farzand qilib tarbiyalashimiz lozim. Ayni shu jarayonda bola o'zida o'quvchi shaxsini yaratadi, maktab va ta'lim olamiga qadam qo'yganda ustozni muhtaram zot ekanligini anglaydi, ularga nisbatan qiziqishni, mehrni tuyadi, ilm yo'lidagi kelgusi natijalar uchun kuch toplashni boshlaydi. Bu esa, zamонавиу педагогика oldidagi doimiy va murakkab masala sifatida darsliklarning g'oyaviy, tarbiyaviy va ma'rifiy saviyasiga jiddiy yondashishni talab etadi.

Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o'qitish metodikasini takomillashtirish vazifasi belgilangan. Shunga muvofiq, darsliklarni yangilash bo'yicha muayyan ishlar bajarildi. Xususan, ilg'or xorijiy tajribalar asosida 1-4-sinf darsliklari yangidan 4K modeli asosida tayyorlandi. 4K modelidan foydalanish ko'plab sinovlardan o'tgan, muhimi, zamонавиу yondashuvdir. Biz avvallari bolalarning yozuviga ko'proq e'tibor qaratganmiz, diktantlar yozdirganmiz.

Yangi tajriba bilan esa o'quvchilarning tanqidiy fikrlashi, o'z fikrini erkin bayon eta olishiga ko'proq ahamiyat beriladi. Ushbu yangi zamонавиу maktab darsliklari innovation yondashuvni taqdim etadi. Bu metodologiya bolalarning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, to'rt asosiy kompetensiyalarni o'z ichiga oladi.

Kollaborasiya – darsliklar o'quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o'quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini o'rganishga ko'maklashadi.

Kommunikativlik – darsliklar o'quvchilarning boshqalar bilan muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. O'quvchilar o'z fikrlarini aniq va ravshan ifodalash, suhbатdoshni tinglash va tushunish, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishni o'rganadilar.

Kreativ fikrlash – darsliklar ijodiy fikrlash va yangilik qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Suqtot O'quvchilar o'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashni

o‘rganadilar, innovatsion yechimlar ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

Kritik fikrlash – ushbu metodologiya o‘quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o‘z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilar muammolarga analitik nuqtai nazardan yondashishni o‘rganadilar va mantiqiy fikrlash asosida o‘z nuqtai nazarini shakllantiradilar.